



“SHARQ GAVHARI- QO`QON SHAHRI!” (1-QISM)

Sattorova Sarvinozxon Ortiqboy qizi ¹
Ergashev Madaminjon Yuldashevich ²
Abdullayev Alimardon Xaydarovich ³

¹ Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchilari

² Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchilari

³ Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchilari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6625837>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 05th June 2022

KEY WORDS

Qo`qon shahar devoir,
Xudoyorxon o`rdasi,
Norbo`tabiy madrasasi,
«Madrasai To`nqator» va
«Madrasai Haqquli
mingboshi», «Madrasai
Miyon hazrat», Madrasai
Kamol qozi

ABSTRACT

Ushbu maqolada, Qo`qon shahri me`morchilik yodgorliklari haqida, Qo`qon shahrida oliy o`quv yurti sifatida tashkil qilingan madrasalarning qurilishi, Qo`qonlik xunarmand ustalarning ijodiy faoliyati haqida keng ma`lumotlar berilgan.

Qo`qon shahri me`morchilik yodgorliklari bilan ham mashhurdir. Bu borada Qo`qon shu kunga qadar saqlanib marqand, Xiva va Buxorodan keyingi o`rinda turadi. Ammo XIX asrda qurilgan binolarni taqqoslasak Qo`qon shahri birinchilar qatoriga chiqib olpshi mumkin. Qo`qon shahrida bir nechta hashamatli madrasa, masjid va boshqa binolar mustamlaka va sovet davrlarida buzilib tashlandi, ayrimlari ta`mirlanmay vayronaga aylangan edi.

Qo`qon shahar devori haqida eshitganmisiz. Hozirgi kunga qadar saqlanmagan, vayronaga aylanib yo`q bo`lib ketgan. XX asrning 50-yillarida uning ayrim xarobalari bor edi. Umuman olganda Ko`don shahri devori muhim tarixiy yodgorlik bo`lgan. X V III asr o`rtalarida shahar devori to`rt darvozali edi. Masalan, XVIII asr birinchi yarmining oxirlarda

qalmoqlar Qo`qon shahrini bosib olmochi bo`l- ganlarida shahar devorining mustahkamligidan shaharga kira olmaganlar. Keyinchalik shahar kengayib devor buzib tashlanadi. 1842 yili esa Qo`qon shahri atrofida idevor barpo etiladi.

1875 yil 16 iyulda polkovnik M. D. Skobelev praporshik Rudakov yordamida Qo`qon shahri devorinn va uning atroflarini harbip mutaxassis sifatida rekognostsprovka silib oladi. Bu hakda u 1875 yil 1 sentyabrda raport yozadi. Suypda ushshg hisqartnirilgan mazmuni mpsol tariqasida keltiriladi:

XIX asrda Qo`qon shahrida oliy o`quv yurti sifatida tashkil qilingan madrasalar ko`p edi. Ular shuningdek tarixiy, me`moriy yodgorliklar hamdir. Ulardan ko`pi shu kunga qadar saqlanib qolinmadi, nomlari ham noma`lum. Saqlanib qolganlari haqida



esa ayrim yozma parchalar yoki ko'pincha faqat nomlari eslatib o'tilgan xolos. Ma'lumotlarga qaraganda, Qo'qon shahrida. 40 tacha madrasa bo'lgan, ammo hali hammasi haqida arxiv yoki boshqa manbalar to'liq topilgan emas.

Xudoyorxon o'rdasi - Qo'qondagi me'moriy yodgorlik (19-asr 2-yarmi); Qo'qon xoni Xudoyorxon qurdirgan. Me'mor va muhandis Mir Ubaydulla loyihasi va rahbarligida bunyod etilgan; ustalardan Mulla Suyarqul, Solixo'ja va buxorolik usta Fozilxo'jalar qatnashgan, koshinlarini rishtonlik kulol usta Abdulla mahorat bilan bajargan. Xudoyorxon o'rdasi to'g'ri to'rtburchak tarhli (68x143 m) bo'lib, sun'iy tepalikka baland g'ishtin poydevorli qilib qurilgan: xon qarorgohi, o'rda ahli yashaydigan hamda turli maqsadlarda foydalaniladigan 100 ga yaqin kattakichik xonalar, ichki-tashqi hovlilardan iborat bo'lgan. Birinchi hovlida ayvon, ko'rinishxona, xazinaxona, alohida saxdli masjid, markazda xon qarorgohi (shohnishin), salomxona, xo'jalik binolari, ikkinchi hovlini uning sahni bilan bog'langan haram va xos xonalar egallagan; haramxonalar bezaklari odmi bo'lib, asosan, quyma ganch ishlatilgan, haramxonalariga ayvonchaga o'xshash o'tish joylari (yo'laklar) orqali kirilgan.

Norbo'tabiy madrasasi, 1799 yili qurilgan. Uni barpo etishda qo'tsonlik ustalar bilan birga buxorolik Muhammad Solih Usta Kosim ham katnashgan. Qo'qon ustalariga xos xususiyat monumentallikdir. Binoning baland peshtoqlari va salobatli kirish arklari va kapitllik gumbazlari xuddi feodal tuzumi va uning suyanchigi bo'lmish dinning barqarorligini ramz etgandek tuyuladi. Bu taassurotni pishgan g'ishtdan qurilgan oldi devori yana ham mustahkamlaydi. Qo'qon madrasalariga

xos xususiyatlardan biri ko'p qurilmalar koshinsizdir, faqat ayrimlarigina bunday bezaklidir.

Ichki hovli berk qurilma bo'lib perimetri bo'ylab hujralar joylangan edi. Me'mor N. Azimovning yozishicha, «Bu bir qatvatli bino simmetrik hovli kompozitsiyasi (tuzilishi) rejasiga ko'ra to'g'ri burchakli bo'lib uning burchaklarda silindrsimon minoralari bor. Kesma burchakli kvadrat hovlisida (38x38 m) yashatsdigan hujralar mavjud. Asosiy kiradigan peshtoqli tomoya shimolga qaratilgan.

Uning yon tomonlarida gumbazli machit qurilgan. Un ikki derazali bir-biriga tutashgan arklar, silindrsimon qurilma, gumbazli machit va sinf qurilgan.

Pishgan g'isht bilan qurilgan bu binoda deyarli bezaklar yo'q. G'ishtlik oldi devor, ochiq, ganchli shuvoq o'zining musaffoligi bilan yarqirab turadi. Machit xonasi o'zining stalaktitli gumbaz tagi va yulduzsimon qurilmalar bilan to'ldirilgan mehrob darsxonaga nisbatan go'zalroq ko'rinadi. Eshiklari esa sodda geometrik shakllar va o'simliksimon o'nmakorlnk bilan bezatilgan. Madrasa o'zining tuzilishi va peshtoqi bilan Buxoro yodgorliklariga o'xshab ketadi (Ko'kaldosh, Abdulazizxon va Mir Arab madrasalari kabi)». O'zining salobatligi bilan ikkn qavatli, pishgan g'ishtday qurilgan, burchaklarida minorali, kvadratsimon baland bino Madalixon madrasasi boshqa qurilmalardan ajralnb turardi. Bunday madrasa Toshkentda ham, boshqa shaharlarda ham bo'lmagai. Bu erda 1000 ta mulla o'qir edi. Bu madrasa sobiq sovet davrida xarobaga aylandi va buzib tashlandi.

Xudoyorxon onasining vasiyatiga ko'ra «Madrasai Hokim oyim»ni Jome machitining sharqiy tomoniga qurdirgan.



Qurilishni Mullo To'ra o'gli boshqardi. Qurilish 1869/70 yilda tugadi. Keyingi yil esa Xudoyorxonning farmoyishiga ko'ra Sirdaryodan Shahrixon tomon ariq chiqarib undan tushadigan daromadii «Madrasai Hokim oyim»ga vaqf qilib berdi.

Madrasai Kamol qozi. Madrasa 1820 Gishtli qurilgan. Oldi devorining bir qism rangli sirkor koshinlar bilan bezatilgan. Shu bondsdan aytib o'tish mumkin, eng yuqori sifatli soiol buyumlar va koshinlar oxirgi asrlarda Qo'qonda tayyorlanar edi. Kamol qozi madrasasida ishlatilgan koshiilar ham yuqori sifatli edi. Qurilishni mahalliy qo'qonlik ustalardan Usta Umarxon boshqardi. Bu madrasa ta'mirlanayotganda 1913 yili oldi tomoni koshinlar bilan bezatilgan, ularni usta Muhammad Sodiq qozi tayyorlagan. Ayniqsa sariq va ko'k rangli koshinlar jozibadorligi bilan, boshqa ranglardan sifatiligi bilan ajralib turadi.

Qo'qon soyning chap qirgog'ida G'ishtko'prik yonida yana ikkita katta madrasa bo'lgan: «Madrasai To'nqator» va «Madrasai Haqquli mingboshi». Ikkinchisi 1825 yili Haqquli mpngboshi Jahongirbek dodxoh o'g'li tomonidaya qurdirilgan. Afsuski, bu binolar saqlanmagan.

«Madrasai Miyon hazrat» XVIII asrning oxprida Qo'qon shahriga janubiy qismida qurplgan. Miyon Ahad peshovarlik (Pokiston) edi, u yerdan oilasi bilan Qo'qonga ko'chnb kelgan. U o'zini aql-zakovati, diniy fanlarin yaxshp bilishi bilan mashhur bo'lib xonga maslahatchi bo'lib oladi. Pokistoidan boy meros oladi va shu mablag' hisobnga madrasa quradi. Bu madrasa binosi shu kunga qadar saqlanib qolgan.

Ma'lumki, Nodirabegim farmoni bo'yina Qo'qon shahrida yana ikkita madrasa surilgan adi: birinchisi — «Mohlar oyim» taqachilik rastasi yonida, ikkinchisi — Chalpak» katta dabriston yonida edi. Mening shaxsii arxivimda «Chalpak» madrasasi bilan bog'liq uchta hujjat bor: «1914 yilda 5 nchi martda Jo'rabon Muhammad Nosir o'g'li "Madrasai Nalnak" ning mutavallisiga ikki ming kesak sotib olti so'm pul oldim deb, xat bilmagani uchun amri bilan Mullo Ismoil Oxund Mirzo xo'ja o'g'li ko'lum ko'ydim», deb yozadi X. Bobobekov o'z arxivida!

Xulosa qilib aytganda, bunday tarixiy merosimzlarning ayrimlari saqlanib qolgan bo'lib, ushbu meroslarni arsab avaylash biz yoshlarning burchi.

References:

1. Хайдарбек назирбекович бобобеков "қўқон тарихи" Тошкент «фан» 1996.
2. Туркостапский сборник, т. 125. 40—41-бетлар.
3. Қўқон шаҳар меъморий бўлимипинг архивидан.
4. Туркестанские ведомостн, 1871, № 45.